




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

CHANDIR SHEVASINING BA'ZI GRAMMATIK XUSUSIYATLARI XUSUSIDA
(PASTDARG'OM TUMANI CHANDIR QISHLOG'I MISOLIDA)

ON SOME GRAMMATICAL FEATURES OF THE CHANDIR DIALECT (ON
THE EXAMPLE OF THE VILLAGE OF CHANDIR, PASTDARGHAM DISTRICT)

Murodqosim ABDIYEV,
SamDU professori, filologiya fanlari doktori,
Salohiddin RAXMONOV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJI2368

Annotation. *The Chandirs, a part of the ancient Turkic peoples, are a people speaking the Oghuz dialect, and they are mentioned as a clan name within the Uzbek and Turkmen peoples. They mainly live in Uzbekistan, Turkmenistan and other countries. The Chandirs have their own phonetic, lexical and grammatical features, which serve to ensure the uniqueness of their dialect. This scientific article briefly discusses the grammatical structure of the Chandir dialect.*

Key words: *Turkic people, Chandir, grammar, dialect, dialect, literary language, Uzbek, collocation, addition, linguistic culture, feature.*

Ma'lumki, jahon tilshunosligida shevalar insoniyat tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi muhim til hodisasi sifatida o'rganilib kelinmoqda. Shevalar milliy qadriyat sanaladi, chunki ular milliy tilning asosini tashkil etadi, xalq madaniyati, tarixi va turmush tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lib, adabiy tilni boyitadi va milliy o'zlikni anglashning muhim qismidir. Globalizatsiya sharoitida ularni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish muhim, chunki ular tilning xilma-xilligini ta'minlaydi va milliy merosning ajralmas qismidir. O'zbek tilshunosligida esa xalq shevalari tadqiqot obyekti sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlandi. Ularning leksik-semantik xususiyatlari, morfologik tuzilishi, tarixiy-etimologik ildizlari hamda lingvomadaniy mohiyatini o'rganish bugungi kunda ham muhim ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Adabiy tilning jamiyatdagi mavqeyi uni doimiy boyitib boruvchi shevalarga bog'liqdir. Hatto adabiy til grammatikasi asosini ham shevalarga xos materiallar tashkil etadi. Xalqning o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlar ham shevalarga xos so'z yasalishi, egalik kelishik, so'z birikmasi, gap qurilishi singarilarning o'ziga xosliklar ham sheva vakillarining nutqi orqali namoyon bo'ladi. Ushbular nafaqat sheva vakillari, balki ijodkorlar qalamiga mansub badiiy asarlarga xos dialogik nutqlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Biz ushbu ishimizda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani Chandir qishlog'i aholisi nutqiga xos sheva materiallarining ayrim grammatik xususiyatlari xususida qisqacha fikr bildirishga harakat qilamiz.

O'zbek tilining o'g'uz shevalari bo'yicha G'ozi Olim Yunusov, V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullaev, Y. Jumanazarov, A. Ishayev, A. Ahmedov, A. Allaberdiev va boshqalar tilshunoslarning mazkur monografik tadqiqotlari yaratilgan. O'g'uz shevasiga xos xususiyatlar shevshunoslikka doir bir qator darslik, qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarda ham o'z ifodasini topgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan ilmiy tadqiqotlarda og'uz lahjasining fonetik, leksik hamda turli grammatik xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, ularda asosan Xorazm, qisman Buxoro o'g'uz shevalariga xos xususiyatlar tahlil qilingan. Ammo Samarqandda, xususan, Pastdarg'om tumani Chandir qishlog'i shevasi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelmoqda. Mazkur sheva Xorazm shevasiga yaqin bo'lsa-da, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Albatta, shevaga atrofdagi qipchoq

shevalarining ta'siri va turkman tilining talaffuz elementlari sezilib turadi. Shevada gap qurilishi, morfologik shakllarning qo'llanishi, unlilarning qisqaligi Xorazm shevasiga yaqin kelsa-da, ba'zi hollarda Xorazm o'g'uz shevasida uchramaydigan o'ziga xos morfologik va sintaktik grammatik shakllar ham qo'llanishdadir.

Fikrimiz isboti sifatida quyida mazkur shevaga xos muloqot jarayoni matnini keltiramiz: *Aydana ko'rmanete!* - aytganga ko'nmadi-da, *Ayd-aytmoq*, *-an-gan* qo'shimchasi, *-a* -ga kelishik qo'shimchasi; *ko'rmanete- ko'r(n-tovush almashinuvi)-ko'nmoq -manete - madida bu o'rinda -te(-da ko'nmadida-ey tarzda (shu so'zdagi -manet-e (-daey bor) qo'shimchasida so'zlovchining hayojoni aks etgan)* kelgan qisim yashiringan. Axir, aytganimga rozi bo'lmadi-da! ma'nosida qo'llanadi. Yana shunga o'xshash gaplardan birida o'ziga xos grammatik kategoriyalarning shakldoshlik holatidagi ko'rinish olishining guvohi bo'lamiz. *Yozmanan biliman!* Shevadagi *yozmanan* so'zining o'zida *yozishni ham* ko'rinishdagi birikmani bir qismini tashkil qiluvchi tugallanmagan sintaktik qism o'rin egallagan. Ushbu qisimdagi *-manan* o'zida -ish harakat nomi, -ni tushum kelishigi va ham yuklamasi (shu qism ba'zi qipchoq shevalarida kelganda *-diyam* ko'rinishida aytiladi ya'ni *yozishdiyam* tarzda qo'llanadi) o'rin egallagan. Gapdagi *bilimin* so'zida barcha o'g'uz shevalarga xos bo'lgan dialektik xususiyat aks etgan ya'ni qisqa unlilardan foydalanish *-im, -in morfemalari -may, -man* morfemalari o'rnida kelgan.

Qisivatanatan- bu so'zning morfemik tarkibi *qis, - vatan(-yotgan), -atan (ekan)* - qisayotgan ekan. Ushbu holatda kishilarni biror ishdan hiyla bilan chetlashtirish jarayonida ishlatilgan so'z. Tarmashamman so'zida *tovush o'zgarish holatining* shevada aks etgan holati ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi so'zlarda *-an* qo'shimchasi *-gan*, ekan tarzda ishtirok etgan, bu so'zda tarmash *-an* emas *-am, --man* tarkibidagi *m* tovushi odatdagi *n* tovushini o'ziga moslashtirgan- tirishqoqlikligim bilan, kurashdim ya'ni o'zimning ustimda ishladim, natijada o'z kasbimning egasiga aylandim. *Go'riverl-* bu so'zda ham fonetik o'zgarishlar asosida birikmali so'z bir so'zda fonetik o'zgarishlar asosida qurilgan ko'rmoq *-i (-ib qo'shimchasini -iv ko'rinishda to'liq qabul qilish noto'g'ri hisoblanadi chunki bu -ivel qismiga ham aloqadorligi bor bo'lib natijada k tovushi tushib qolgan. Shunga qaramasdan o'zbek adabiy tilidagi elmoq, yugurmoq fe'llari el so'zining alohidaligini ta'minlab turadi)* ko'rib kel; *Eshik deys-* bu yerda *tovush o'zgarish hodisasi bilan bog'liq o'zgarish ro'y bergan dey, -miz (-yis, -miz m tovushi tushirilib y m tovushining o'rnida kelganday aks etadi)- eshik deymiz; Gelin oli qochilan uchin otanan keyin xabarlasha* -Kelin olib qochilgandan uch kun o'tgandan keyin xabar keladi. *Oli* -olib, -b tovushi tushiriladi ko'pgina so'zlarda shu shakl qatnashganda, *-ib* qo'shimchasidagi *-b* tovushi tushiriladi. *Uchin-* uch kun bu o'rinda ikki so'z bir so'zga birlashib kun so'z -in sheva qisqartmasi bilan ifodalangan. *O'tanan an'anaviy* -an qo'shimchasi shevada faol ishtirok etadi, -anan shaklida kelganda, -gandan qo'shimchasini birlashtiradi. *Xabarlasha* bu o'rinda -a qo'shimchasi shevadagi noa'naviy qo'shimcha sifatida -di qo'shimchasining o'rnida kelgan, asosan -a, -na qo'shimchalari chandir shevasida jo'nalish kelishi o'rnida qo'llanadi *xabarlashadi* Xorazm shevasida ham bu variant ko'p uchramaydi bu qipchoq shevasi ta'sirida yuzaga kelgan; *O'ngshimeydi-kelishmaydi*, bu so'zdagi o'ng so'zi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalq nutqida yoki adabiy tilimizda ham o'ng so'zining antonimi chap so'zi va bu ziddiyat asosida ko'pgina ko'chma ma'nolik yuzaga kelgan. Xalq shevalarida *menga o'ng'ay keldi, yoki ishim ong keldi* kabi (*Aka ish jurishib qoldi, voqti keldi o'g'ayladim. Sovdoloring pishdima, kelishdima...? (Qipchoq shevasidan)*) iboralar bor. Bu so'z hozir shevadagi kelishmadi so'zi bilan sinonimik holatga kirishgan.

Bundan tashqari *O'rta ochilli-kelishildi, Urugelavera- borib kelaveradi (beshikka nisbatan) bir tebrantirib qo'yilsa o'zi ancha vaqtgacha tebranib turaveradi ma'nosida ishlatilgan, Moqara-bunga qarang, Nechonolade-qayerdan olib keldi, sho'lqila ishlaydi- tinimsiz ishlaydi, Chig'izmoq- chaqirmoq, Nama bormayan-nima uchun bormayman, Chirk qilma- to'zg'itma* kabi so'zlar borki, bu so'zlar yuqoridagi tahlilga olingan so'zlardek o'g'uz shevalarining fonetik

talaffuzi va boshqa o‘g‘uz shevalarida uchramaydigan morfemik shakllarni o‘zida aks ettirib turadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘g‘uz shevalari yuzasidan tilshunoslar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, lahjaning ba’zi bir shevalari shu paytgacha shevashunoslar e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Shu paytgacha Xorazm va Buxoro viloyatidan boshqa joyda istiqomat qiluvchilarning sheva materiallari to‘liq tadqiqot manbai bo‘lgan emas. Jumladan. Pastdarg‘om o‘g‘uzlari shevasi bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Kelajakda esa mazkur shevaga xos fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlarni adabiy tili va boshqa o‘g‘uz shevalari materiallari bilan qiyoslab o‘rganish shevashunoslar oldidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ғози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Т.: Ўздавнашрёт 1935. (лотин алифбосида).
2. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
3. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Т.: Фан, 1978;
4. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Т.: Фан, 1964.
5. Жуманазаров Ю. Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлар. – Т.: Фан, 1961.
6. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Т.: Фан, 1977.
7. Аҳмедов А. Ўзбек адабий тили тарихида ўғуз унсур ва кўринишларининг кўлланиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2006. – 26 б.
9. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>.
10. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Т.: Nodirabegim nashriyoti, 2021.
11. Содиқов Т. Сўзларнинг шакл ва мунособатига кўра турлаври\ \ Ўзбек шевалари лексикаси. – Т.: Фан, 1991.
12. Худоярова Г. Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида таом номлари. НДА. – Тошкент. 1995.
13. Allaberdiyev A. Buxoro o‘g‘uz shevalarining til xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Qarshi, 2025.
14. Saidov Y. O‘zbek dialektologiyasi, o‘quv metodik qo‘llanma, Buxoro: Durdona nashriyoti, 2021.
15. Абдиев М. Пастдарғом тумани чандир шеваси ҳақида\ Ўзбек тили ва адабиёти, 2015 yil 5-son , 40-45 б.

